

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«IASDIOLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor
K.A.Samiyev
2025y.

08.00.15 - "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti"
ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

DASTURI

Buxoro-2025

Ushbu dastur Buxoro davlat universitetining "Iqtisodiyot" kafedrasining 2025 yil 18 oktyabrdagi № 9 sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

1. A.J.Abdulloyev – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, professor.
2. M.U.Turdiyeva – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

1. Z.B.Navruzoda – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
2. F.M.Raxmatullayeva – Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti, iqtisod fanlari doktori.

Dastur Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan
(^o 29.10.2025yil 3 -sonli majlis bayoni).

KIRISH

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan mutaxassislarining kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yilda chop etilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida xalqimizning ishonchi va orzu-niyatlari, ezgu umidlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish" alohida belgilab berilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli beqiyosdir.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati to'g'risida so'z yuritganda, "mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rnlarning 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu boisdan ham agar biz iqtisodiyotimizni, ijtimoiy sohani yanada yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur"².

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qullash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holatidan va chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotidan kelib chiqadi.

Dasturda qo'yilgan mavzular 08.00.15 - "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga da'vogarlarining faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi.

Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar falsafa doktorligiga da'vogarlarining shaxsiy qarashlarini shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan. Dastur 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

¹ Shavkat Mirziyoyevning "Yangi Uzbekistan strategiyasi" nomli yangi kitobi chop etildi // <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyevning-yangi-o'zbekiston-strategyasi-nomli-yangi-kitobi-chop-etildi>

² Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish - eng muhim vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq mulohaza shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2021-yil 20-avgust. - <https://uz.uz/posts/>

Ushbu dastur 08.00.15 - "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga talabgor katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar instituti uchun mo'ljallangan.

Dasturning maqsadi va vazifalari

«Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti» tushunchasi, «kichik biznes», «tadbirkorlik», atamalarining mohiyati. Mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli, mintaq - mamlakat yagona xalq xo'jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi, hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, uzluksiz taraqqiyotni ta'minlab beruvchi ichki va tashqi omillar. «Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti»ning maqsadi — tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyati, tamoyillari, tashkiliy-huquqiy asoslari, boshqaruv usullari hamda kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari haqida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish bunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning o'rni va roli anglatiladi; kichik biznesni tashkil etish, yuritish va rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy qarorlar qabul qilishni; davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilishni o'rgatadi.

1-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni

Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi.

2-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari

Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Innovatsion tadbirkorlik. Ilmiy-texnik tadbirkorlik. Tovar ishlab chikarish va xizmat ko'rsatish buyicha tadbirkorlik. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslahat tadbirkorligi. Maslahat xizmatlari.

Tadbirkorlik shakllari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik. Jamoa tadbirkorligi. Firmalar. Ma'suliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aksiyadorlik jamiyati. Korporatsiya. Holding kompaniya. Davlat korxonalari. Konsern. Konsorsium. Kooperativ. Kartel. Sindikat. Venchur korxonalar. Ijara korxonalar. Injenering korxonalar.

3-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Kichik biznes sub'ektlarini bank, soliq va moliya muassasalaridan ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur hujjatlar, ularning mazmuni. Kichik biznes sub'ektlarining bankrotligi. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini qayta tashkil

etish va yopish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya beruvchi tashkilotlar. Litsenziya berish muddatlari. Litsenziyani bekor qilish tartibi.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni.

4-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida marketing faoliyatini tashkil etish

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati. Marketing - biznes falsafasi. Marketingning boshqaruv funksiyasi. Bozorni tanlash. Tadbirkorlik faoliyatida bozor segmentatsiyasining ahamiyati. Bozor segmentatsiyasining xususiyatlari. Bozorni segmentlashni tashkil etish. Bozordagi maqsadli segmentni tanlash. Bozor imkoniyatlarida biznesdagi kuchli tomonlarning muvofiqligi. Tovarning hayotiylik davri. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadbiriqlaridan foydalanish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini uchun marketing dasturini ishlab chiqish.

5-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes-rejaniing ahamiyati. Biznes-rejaniing mohiyati, mazmuni va tuzish zaruriyati. Biznes-rejaniing asosiy bo'limlari. Biznes-rejani bajarilishini nazorat qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini operativ va strategik tahlil qilish. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini samaradorligi tahlili.

6-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan muloqot uchrashuvida, "Tadbirkorlik faoliyatini infratuzilma bilan ta'minlash yo'nalishidagi masalalar. Infratuzilmaning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari. Brokerlik idoralari, ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, lizing, konsalting va sug'urta kompaniyalari, bojxona xizmati, axborot - maslaxat markazlari, injenering va auditorlik firmalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan muloqot uchrashuvida, "Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasi va kreditlarning maqbul foiz stavkalarini shakllantirish yo'nalishida" qanday masalalar o'z ifodasini topdi.

O'zbekistonning bank-moliya tizimi. Bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar. Banklarning asosiy operatsiyalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Banklardan kredit berish tartibi.

10-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida eksportning hozirgi holati va tahlili. Eksportyor korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Eksportyor korxonalarga yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlar. Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Kichik biznes korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Xorijda o'zbek savdo uylarini tashkil etish. Eksport ko'rsatkichlarini hisoblash usullari.

11-mavzu. Korxonalarning tashqi muhitini tahlil qilish

Makromuhit tuzilmasi. Bozor yoki segmentda uzoq muddatli foyda olishdagi ichki yoqimlilikni aniqlovchi M.Porterning beshta raqobat kuchlari: raqobatchilar, tovar o'rini bosuvchi mahsulotlar, yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, bozorning salohiyatli ishtirokchilari. Intensiv raqobatchilik xavfi. Tijorat kurashida xarajatlar qiymatini kamaytiruvchi to'siqlar. Yangi ishtirokchilarning paydo bo'lish xavfi. Yoqimli segmentning kirish va undan chiqishdagi to'siqlar. Har tomonlama yuqori to'siqli strategiyalar. Yangi texnologiya va mahsulotlar monitoringi. Yetkazib beruvchilarning bozordagi hukmronligining kuchayish xavfi. O'ziga jalb qilmaydigan segment. Yetkazib beruvchilar kuchi, darajani va konsentratsiyani o'rinishi (o'sishi), o'rini bosuvchi mahsulotlar safining kamayishi. Himoyalash strategiyasi. Strategiyani amalga oshirish uchun zaruriy bozor sharoitlari va xatarlari.

12-mavzu. Kichik korxonalarning ichki muhitini tahlil qilish

Iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifalari va unda qo'llaniladigan usullar. Korxona faoliyatining SWOT - tahlil usuli. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va ularning tarkibi. Kam xarajalar orqali raqobat ustunliklariga erishish. Mahsulot tannarxidagi tarkiblarning farqlanishi: keng ko'lami ishlab chiqarish usuli orqali tejamonkorlikka erishish, o'qitish orqali tejamonkorlikka erishish ishlab chiqarish texnologiyasi, mahsulotlar konstruksiyasi, tarmoqqa kirishdagi xarajalar, tashkiliy omillar. Xarajatlarni kamaytirish orqali raqobat ustunlikka erishish. Mahsulotning differentsiatsiyasi: tovar differentsiatsiyasi, xodimlar differentsiatsiyasi, imidj va xizmat kursatish differentsiatsiyasi. Mahsulot differentsiatsiyasining imkoniyatlari. Fokushlash strategiyalari. Farqlanuvchi qobiliyatlar tushunchasi. Qiymat zanjiri: birlamchi va ikkilamchi faoliyatlar tahlili.

13-mavzu. Biznes-g'oya tahlilining metodik asoslari

Strategik biznes rejalashtirishning mohiyati. Missiya o'rni biznes-g'oya. Bozor ehtiyoji. Ichki qobiliyat. Taraqqiyot imkoniyatlari. Biznes sharti. Institutsional bilim. Ichki jarayonlar. Ishonch va obro'-e'tibor. Himoyalash qonun qoidalar. Strategik rejalashtirish yangilashish va transformatsiyalash jarayoni sifatida. Biznes-g'oya. biznesning farqlanadigan jihatlari, strategik tahlil, rejalashtirish, biznes-g'oyaning tarkibiy qismlari (bozorning ehtiyojlari, korxonaning ichki jihatlari, korxona jihatlarining rivojlanish imkoniyatlari, biznes sharoitlari).

Ehtiyoj va talabning tuzilishi. Xususiy sarmoya tuzilmasi. Konsultatsion

O'zbekistonda soliq tizimi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan soliq olish qoidalar va soliq imtiyozlari.

7-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentabrda "Tadbirkorlik sub'ektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6314-sonli Farmoni.

Ishlab chiqarish xarajatlarning mohiyati tarkibi va elementlari. Kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarish xarajatlari. Noishlab chiqarish xarajatlari. Ichki xarajalar. Tashqi xarajalar. Doimiy xarajalar. O'zgaruvchan xarajalar. Bevosita xarajalar. Bilvosita xarajalar. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajalar. Davr xarajatlari. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajalar. Favqulodda zararlar. Mahsulotni tannarxi va uni hisoblash usullari. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

8-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrda "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6307-sonli Farmoni. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining asosiy moliyaviy hujjatlari. Balans. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Moliyaviy tahlilning turlari va ularni o'tkazish usullari. Kichik biznes va tadbirkorlikda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati, maqsadi va asosiy ko'rsatkichlari. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari. Kichik biznes subyektlarini kredit bilan ta'minlash shakllari. Kredit turlari. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning boshqa manbalari va ulardan samarali foydalanish.

9-mavzu. Tadbirkorlik etikasi va madaniyati

Tadbirkor rahbar etikasi. Tadbirkor rahbarning etika kodeksi. O'ziga jalb qilish imidji. Tadbirkor rahbar faoliyatining ruhiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor rahbar etiketi. Suhbatlashish, tanishish hamda so'rashish normasi. Ish kontraktlarini tashkil qilish. Ish subbatlarini olib borish. Telefonda gaplashish madaniyati. Ish protokoli va hisoboti. Tadbirkor rahbarning nutq madaniyati va uning ruhiy-psixologik xususiyatlari. Tadbirkor rahbarning tashqi ko'rinishi va o'zini tutishi. Tadbirkor rahbar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar. Tadbirkor rahbar faoliyatida mojaroli holatlar va ularni hal etish usullari.

17-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatida biznes-reja tipologiyasi.

Biznes-rejaga quyiladigan asosiy talablar

Tadbirkorlik faoliyatida biznes-reja maqsadi. Biznes-reja asosiy tipologiyasi va turlari. Xo'jalik yuritish uchun va kredit olish uchun biznes-reja. Ularining xususiyatlari va asosiy belgilari. Tijorat yoki investitsiya loyihasi uchun to'liq biznes-reja, uning qisqacha xarakteristikasi. Tadbirkorlik biznes-rejasi, uning mazmuni va tizimi. Firma tashkiliy tizimi bulimi uchun biznes-reja. Kredit va grant olish uchun biznes-reja. Uning xususiyati va belgilari. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida mamlakat xududini rivojlantirish uchun biznes-reja. Biznes-reja ishlab chikish uchun quyiladigan umumiy talablar va mazmuni.

18-mavzu. Biznes-loyiha va biznes-reja ishlab chiqishdagi asosiy bosqichlar. Asosiy bo'limlarning mazmuni va tuzilishi

Biznes-reja: tavsifi, tuzilish usuli. Aniq qo'yilgan maqsad va unga erishishdagi korxona strategiyasi. Xo'jalik yuritish faoliyati uchun biznes-rejaning "klassik" tizimi. Hisobot yilidagi korxona holatining tahlili. Biznesni ifodalash. Bozor. Marketing. Ishlab chiqarishni rivojlantirish. Boshqaruv va kadrlar. Moliya. Foyda va zarar. Rejalashtirilayotgan o'zgarishlar. Xo'jalik yuritish faoliyati biznes-rejasini asosiy bo'limlari mazmuni: Biznes-reja bo'limlarining zarurati. Titul varag'i. Kirish qismi. Soha holati tahlili. Loyiha mohiyati. Marketing rejasi. Ishlab chiqarish rejasi. Tashkiliy ishlar rejasi. Xavf - xatarni baholash. Moliyaviy reja.

Ishlab chiqish ustidan nazorat va korxonada biznes - rejani tadbiriq etish. Nazoratning an'anaviy yo'nalishlari: zaxiralar nazorati, ishlab chiqarish jarayoni nazorati, sifat nazorati, bozor ulushi va sotuv hajmi nazorati. Investitsion loyiha. Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizomni asosiy qoidalar. Investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish va monitoringini amalga oshirish.

19-mavzu. Loyiha va biznes-reja ishlab chiquvchi korxona bayoni

Korxonani umumiy bayoni. Faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Sexlarni, asbob-uskunalar, dastgohlarni joylashtirish. Korxona ishlab chiqarish quvvatini oshirish yoki kamaytirish. Avvalgi va hozirgi faoliyatining asosiy natijalari. Korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlariga xolis baho berish. Ishlab chiqarishni tashkil etish. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi. Xom-ashyo, material va komplekt qismlarini yetkazib beruvchilar. Xom-ashyo va yetkazib beruvchilar klassifikatsiyasi. Pasportini ichki tuzilishi va ko'rsatkichlari nomi. Dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash tarkibi (DTIX.). Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash tarkibi (TIA). Loyiha TIA asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihasini amalga oshirish. Loyihani amalga oshirish bosqichlari.

20-mavzu. Marketing rejasi - biznes-rejaning bulimi sifatida

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning marketing rejasi ishlab chiqishning mohiyati va mazmuni. Tashqi va ichki tahlil. Marketing operatsiyalari: Tovar taqsimoti, narx belgilash, bozorga siljinish, budjetlashtirish va

mahsulot. Biznes soha chegaralarini aniqlash. Xususiy imkoniyatlar va qobiliyatlarini tashkillashtirishning tahlili. Tashkilot shaxsiy sarmoyasini tahlil qilish. Ishbilarmonlik xavfini hisobga olgan holda biznes soha ko'lamini aniqlashtirish. Biznes-g'oyani shakllantirish.

14-mavzu. Diversifikatsiya va integratsiya

Diversifikatsiya turlari. Oldinga va orqaga integratsiya. Birlashuvlarning asosiy shakllari. Internatsionalizatsiya. Kirish va chiqishdagi to'siqlar. Biznesning strategik sohasi. Konglomeratsiya va sinergizm mezonlari. Ishlab chiqarish zanjiridagi bo'shliqlar. Xavfning pasayishi, diversifikatsiyalashgan korxonalar, Diversifikatsiyaning afzalliklari va kamchiliklari. Qo'shma korxonalar. Chet bozorlarga chiqish usullari: eksport, franchayzing, qo'shma korxona, to'liq o'zlashtirish xorijiy kapital evaziga tuzilgan korxona. Uzoq va qisqa muddatli strategik shartnomalar. Global strategiya turlari: global, xalqaro, multimilliy va transmilliy strategiyalar.

15-mavzu. Bozor ulushi va o'sish sur'atini taqqoslash: Boston konsalting guruhi (BCG) modeli

Boston konsalting guruhi (BCG) modelining kelib chiqish tarixi. BCG modelining tuzilishi. Tajriba samarasi va mahsulotning hayot sikli modeliga asoslangan BCG modelining ikki gipotezasi. BCG matritsa segmentatsiyasi. Yulduzlar, sog'iluvchi sigirlar, muammo tug'diruvchi bolalar, itlar. Firmaning biznes soha xarakteristikasi. Har xil moliyaviy ehtiyojlar va strategik maqsadlarga asoslangan bozorning to'rt guruhi. Rendi firmasi biznes sohasining BCG modeli. BCG modelining kuchli va zaif tomonlari. Bozorning nisbiy ulushi. BCG modelining asosiy kamchiliklari. BCG modelida foydalanilgan o'zgaruvchilar. Boston matritsasi foyda, naqd pul oqimi va muayyan strategiyalar bo'yicha takliflar. BCG modelining modifikatsiyalashgan matritsasi. BCG modelining modifikatsiyalashgan matritsasi qo'llaniladigan kriteriyalar: raqobatli ustunliklarning hajmi, raqobatli ustunliklarni ro'yogga chiqarish usullarining miqdori.

16-mavzu. Bozorning raqobatbardoshligini va yoqimlilikini taqqoslash:

Mak Kinsey (GE/Ms Kinsey) modeli

Mak Kinsey (GE/Ms Kinsey) modelining kelib chiqish tarixi. GE/Mc Kinsey modelining tuzilishi. GE/Mc Kinsey modeli matritsasining tuzilishi. Strategik holatlar sohasi. Biznesni o'rta holat va biznesni ishonchsiz turlari. GE/Mc Kinsey modelini kuchli va zaif tomonlari. GE/Mc Kinsey modelida qo'llaniladigan bozor yoqimlili va kompaniyani kuchli tomonini xarakterlovchi o'zgaruvchilar. Bozorning yoqimlili va biznesning strategik holatidagi omillar. Bozorning (tarmoqning, raqobatlilik omillari, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik omillar) xarakteristikasi. GE/Mc Kinsey modeli variatsiyasi. Dey tomonidan taklif qilingan GE/Mc Kinsey modelini variatsiyasi. O'ziga jalb etuvchi bizneslar. Raqobat holatining kuchli tomonlari. Bozorni va tarmoqni jalb etilganligi.

dasturlashtirish bayon qilinadi. Quyidagilarni ko'rib chiqish va muhokama qilish: marketing general strategiyasi va korxonaning maqsadini; narx siyosatini tanlash, o'tkazish va tovar yetkazib berish shartini; sotuv taktikasini o'tkazish; xizmat ko'rsatish va kafolatlashni; korxonani rivojlantirish rejalari. Bo'limning asosiy qismi - budjetlashtirish va dasturlash.

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha Baholash mezonlari

Bilim darajasini baholash 0-100 ballik asosida baholanadi.

Ball	Baxo	Talabgorlarning bilim darajasi
90-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo'lish.
70-89	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, Tasavvurga ega bo'lish.
60-69	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, Tasavvurga ega bo'lish.
0-59	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmasilik. Bilmaslik.

Maksimal ball	Bilim, ko'nikma, fikrlash darajasi
100	Fanning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rnini, o'tilgan materiallarni chuqur tushunadi, savolga aniq va to'liq javob beradi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlay oladi, xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni to'g'ri va o'ziga xos usullarda hal qila oladi, to'g'ri xulosa chiqaradi.
90-100	materiallarni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob beradi, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga baho bera oladi, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha
86-89	

	oladi.
80-85	Materiallarni va uning mohiyatini ancha chuqur tushunadi, savollarga to'liq javob beradi. Lekin umumiy xarakterdagi ayrim xatolarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho beradi. mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslash qobiliyati bor, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, muammoni hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni umuman to'g'ri hal qila oladi, lekin xulosalarida noaniqliklar uchraydi
71-80	Materialni va uning mohiyatini juda yaxshi tushunadi, savollarga umuman to'liq javob beradi, lekin ayrim noqulayliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho beradi, mustaqil fikrlay oladi, lekin ba'zi xulosalarni to'liq asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondoshadi.
60-70	Savollarga nisbatan javob beradi, lekin ba'zi umumiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yadi, faktlarga baho berishda biroz qiynaladi, umuman mustaqil fikrlay oladi, lekin ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ancha ijodiy yondoshadi, lekin ayrim xarakterdagi xatoliklarga yo'l qo'yadi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi.
56-60	Materialni va uning mohiyatini umuman tushunadi, savollarga ancha to'liq va aniq javob beradi, lekin ayrim xatolarga yo'l qo'yadi, ayrim faktlarni shunchaki yodlab olganligi sezilib turadi, ayrim xulosalarni to'g'ri asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi, xulosalarda noaniqliklar uchraydi.
50-55	Savollarga aniq va to'liq javob berishga harakat qiladi, lekin ayrim jiddiy xatolarga yo'l qo'yadi, qator faktlarni shunchaki yodlaganligi sezilib turadi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni umuman hal qiladi, ba'zi jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadi.

40-50	Materialni umuman biladi. Aniq javob berishga harakat qiladi, lekin javobda jiddiy kamchiliklar bor, mulohaza yuritishda xatoliklarga yo'l qo'yadi. faktlarni asosan shunchaki yodlaganligi seziladi. Ayorim xulosalarni asoslab bera olmaydi va masalani hal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi.
30-40	Talabgor o'tilgan materialni qisman biladi, javobda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, faktlarni baholab bera olmaydi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda qiynaladi yoki hal qila olmaydi.
20-30	Material haqida qisman, uzluq - yuluq tasavvurga ega, materialni yaxshi o'zlashtirilmagan. bilgan narsasini ham faqat yodlaganligi sezilib turadi, faktlarga baho bera olmaydi, amaliy topshiriqlarni deyarli hal qila olmaydi.
10-20	Material haqida juda kam tasavvurga ega, ayrim faktlarni uzluq-yuluq bilishi mumkin, amaliy topshiriqlarni hal qila olmaydi. Jiddiy qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi.
0-10	Material bo'yicha deyarli hech narsa bilmaydi, juda kam tasavvurga ega yoki umuman tasavvurga ega emas.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekistan, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2021-yil 15-sentabr, PF-6314-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida. 2021-yil 7-sentabr, PF-6307-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbiarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2021-yil 5-oktabr, PF-4848-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbiarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2021-yil 21-aprel, PK-5087-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. - <https://uzauz>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28 dekabr. - <https://uzauz>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar. - <https://uzauz>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil uchun muljallangan eng muxim ustuvor vazifalar xakidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. - <https://uzauz>

10. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish - eng muhim vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2021 yil 20 avgust. - <https://uzauz>

11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. O'zbekiston, 2017.-104 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Qonuni ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston",

2017. - 48 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

2. Qo'shimcha adabiyotlar.

15. Investment Appraisal: Methods and Models - Uwe Gotze, Deryl Northcott, Peter Schuster - 2015.

16. Dr. Jay A. Dewhurst. An Introduction to Business and Business Planning 1st edition 2014

17. Robert Blackbum. Small Business and Entrepreneurship. Sage Publications Associate Dean Research, London 2008.

18. Qosimova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. (Darslik). - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021, 328 bet.

19. Tursunov R.T., Pulatov N.T., Djalalova L.A. Biznes strategiyasi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot, 2016. - 312 b.

20. Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.SH. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. - T.: TDIU, 2013. - 500 b.

21. Asaul A. H., Starinskiy V. H., Starovoytov M. K., Faltinskiy R. A. Otsenka organizatsii stoimosti (predpriyatiya, biznesa). Uchebnik Sankt- Peterburg, Nauka, 2014. - 481 s.

22. Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov S. Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. T.: TMI, 2006. - 234 s.

23. Кантор Е.Л. и др. Экономика предприятия. - СПб: Питер, 2009. - 224 с.

24. Масуега К. Миссия бизнеса, - 3-е изд.-М.: Алпина, 2011. - 98 с.

25. Малый бизнес. Организатсия, экономика, управление: Учеб. Пособие для вузов / Под ред. Проф. В.Я. Горфинкеля, проф. В.Я. Горфинкеля, В.А. Швандара. - 2-е изд., пререб. И доп.-М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2008.

26. Попова В.М. Бизнес планирование. Учебник. М.: Финансы и статистика. 2009. - 256 с.

27. Предпринимательство: учебник / под. ред. М.Г. Лапуста. - 4-е издательство, доп. -М.: ИНФРА-М, 2008. - 667 с.

28. O.X.Xamidov, A.J.Abdulloyev, S.S.Davlatov, N.U.Baxtiyorova, N.F.Odinayeva "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Darslik. - T.: "Durdona", 2023-yil 160 bet

29. A.J.Abdulloyev, M.A.Bakayeva, N.F.Odinayeva "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". O'quv qo'llanma. - T.: "Durdona", 2022 yil. 156 bet

3. Internet saytlari

30. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.

31. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

32. www.economics.ru

33. www.chamber.uz

34. www.ziyounet.uz

35. http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com / best-graduate-schools / top-humanities-schools/economics-rankings

Kafedra mudiri :

A.J.Abdulloyev